



ISLOMIY BANKLARDA MOLİYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTEX) TRANSFORMATSIYASI

TRANSFORMATION OF FINANCIAL TECHNOLOGIES (FINTECH) IN ISLAMIC BANKS

¹Mengniyozov Anvar
Normurodovich

¹Termiz davlat universiteti, "Moliya" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada islomiy banklar faoliyatida moliyaviy texnologiyalar (fintex) asosida yuz berayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari ilmiy-tahliliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda islomiy fintex tushunchasining mazmuni, uning shariat qoidalariga muvofiqligi hamda islomiy bank xizmatlarini modernizatsiya qilishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, internet-bankingni islomiy banklarda joriy etishga ta'sir etuvchi asosiy omillar – qabul qilinayotgan afzalliklar, ijtimoiy ta'sir, islomiy banklar bo'yicha bilim darajasi, xavf va murakkablik omillari tahlil qilingan. Maqolada islomiy fintexning ushbu omillar bilan internet-bankingni qabul qilish o'rtasidagi vositachilik (mediator) roli asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari islomiy banklar uchun raqamli strategiyalarni shakllantirish, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va mijozlar ishonchini mustahkamlashda amaliy ahamiyatga ega.

Eng. - This article provides a scientific and analytical examination of the digital transformation processes occurring in the operations of Islamic banks based on financial technologies (fintech). The study explores the concept of Islamic fintech, its compliance with Sharia principles, and its role in the modernization of Islamic banking services. In addition, the key factors influencing the adoption of internet banking in Islamic banks—namely perceived benefits, social influence, the level of knowledge about Islamic banking, as well as risk and complexity factors—are analyzed. The article substantiates the mediating role of Islamic fintech in the relationship between these factors and the adoption of internet banking. The research findings have practical significance for shaping digital strategies in Islamic banks, improving the quality of financial services, and strengthening customer trust.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ islomiy banklar, islomiy fintex, moliyaviy texnologiyalar, raqamli transformatsiya, internet-banking, shariatga muvofiq moliya, moliyaviy innovatsiyalar.

❖ islamic banks, Islamic fintech, financial technologies, digital transformation, internet banking, Sharia-compliant finance, financial innovations.

Kirish.

Jahon iqtisodiyotining zamonaviy arxitekturasida kutilmagan tarkibiy

o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bir tomondan, sun'iy intellekt, blokcheyn va bulutli hisoblash texnologiyalari an'anaviy bank xizmatlarini

ko'rsatish usullarini tubdan o'zgartirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, axloqiy va qadriyatlarga asoslangan moliyaga bo'lgan talab global miqyosda, xususan, musulmon aholisi zich joylashgan mintaqalarda misli ko'rilmagan darajada ortib bormoqda. Islom moliyasi – bu ikki megatrendning kesishuv nuqtasida joylashgan bo'lib, "Islomiy Fintex" (Islamic Fintech) fenomeni orqali o'zining evolyutsion rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Ushbu transformatsiya shunchaki an'anaviy bank xizmatlarini raqamlashtirish emas, balki Islom shariati (Fiqh al-Muamalat) tamoyillariga asoslangan holda moliyaviy munosabatlarni qayta ko'rib chiqish, shaffoflikni ta'minlash va ijtimoiy adolatni qaror toptirishga qaratilgan fundamental o'zgarishdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, islomiy fintex sektori endilikda o'zining "boshlang'ich" davridan chiqib, global moliya tizimining tizimli ahamiyatga ega qismiga aylanib ulgurdi. 2024-yil yakunlariga ko'ra global islom moliyasi aktivlari hajmi 3,38 trillion AQSh dollaridan oshdi va ushbu ko'rsatkich 2033-yilga borib 7,44 trillion dollarga yetishi, yillik o'rtacha o'sish sur'ati (CAGR) esa 9,15 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda [26]. Ushbu o'sishning asosiy drayveri sifatida an'anaviy filiallar tarmog'idan voz kechgan holda faoliyat yurituvchi neobanklar, aktivlarni tokenizatsiya qiluvchi blokcheyn platformalari va sun'iy intellektga asoslangan investitsiya maslahatchilari (robo-advisors) e'tirof etilmoqda.

Jahon miqyosidagi raqamli iqtisodiyot tendensiyalari va islom moliyasiga bo'lgan qiziqishning ortishi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham bevosita daxldordir. Mamlakatimizda aholining aksariyat qismi islom diniga e'tiqod qilishini va tadbirkorlik faolligi oshib borayotganini inobatga olsak, an'anaviy bank tizimi bilan birgalikda islomiy banklarni tashkil etishga ham zarurat mavjudligi namoyon bo'ladi. Biroq, shu vaqtga qadar infratuzilmaning yetarli emasligi islom

moliyasi instrumentlarini to'liq joriy etishda muayyan muammolarni tug'dirmoqda edi. Ayni shu nuqtada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-359-sonli qarori sohadagi institutsional bo'shliqni to'ldiruvchi va islohotlarni yangi bosqichga olib chiquvchi katalizator vazifasini o'tamoqda.

Mazkur qarorning strategik ahamiyati shundaki, u nafaqat umumiy moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishni ko'zlaydi, balki yuqorida ta'kidlangan global trendlar – neobanklar, blokcheyn va sun'iy intellektga asoslangan xizmatlarni O'zbekiston bozoriga kirib kelishi uchun huquqiy "darcha" ochadi. Xususan, joriy etilgan "Tartibga solish qumdoni" (Regulatory Sandbox) maxsus huquqiy rejimi islom banklari va fintex startaplari uchun o'ziga xos laboratoriya vazifasini o'tab, Shariatga muvofiq keluvchi, lekin amaldagi qat'iy bank regulyatorlariga to'liq mos kelmaydigan innovatsion moliyaviy mahsulotlarni xavfsiz muhitda sinovdan o'tkazish imkonini beradi [2]. Bu esa, o'z navbatida, global islom fintex industriyasida kuzatilayotgan o'sish sur'atlarini O'zbekistonda ham takrorlash va mamlakatni mintaqaviy islom moliyasi xabiga aylantirish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Shu bois, ushbu qaror ijrosi doirasida islom banklarida fintex transformatsiyasini amalga oshirish mexanizmlarini tadqiq etish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda moliyaviy texnologiyalar (fintex) bank tizimini tubdan o'zgartirib, moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish shakllari, tezligi va sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ilmiy adabiyotlarda raqamli platformalar, internet-banking, mobil to'lovlar va elektron tijorat vositalari orqali bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari ortib borayotganligi ta'kidlanadi.

Islomiy fintex masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda u shariat qoidalariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan raqamli moliyaviy xizmatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Nagimova tomonidan olib borilgan tadqiqotda islomiy fintex global islomiy moliya tizimining raqamlashuvida muhim yo'nalish sifatida baholanib, P2P-moliyalashtirish, neobanklar, to'lov va pul o'tkazmalari, aktivlarni boshqarish, blokcheyn va kriptovalyuta, xayriya hamda ko'chmas mulk sohalarida faol rivojlanayotgani asoslab berilgan. Muallif islomiy fintex-kompaniyalar geografiyasi faqat Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo bilan cheklanmasdan, Yevropa va Amerika bozorlarini ham qamrab olayotganini ta'kidlaydi [25]. Bu holat islomiy fintexning global moliya bozorida mustaqil va raqobatbardosh segmentga aylanayotganidan dalolat beradi.

Islomiy fintex xizmatlari keng jamoatchilik uchun sodda, amaliy va xavfsiz tarzda taqdim etiladi, bu esa aholining bank va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini sezilarli darajada yengillashtiradi [3]. Zamonaviy texnologiyalarning jadal joriy etilishi natijasida internet-banking tobora ommalashib bormoqda, bu esa bank tizimida raqobatni kuchaytirish bilan birga, amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalar hajmini ham oshiradi.

Moliyaviy texnologiyalar bank sohasida manfaatdor tomonlarning xulq-atvorini o'zgartiradigan portlatuvchi texnologiya (Disruptive technologies) sifatida baholanib, u faqat an'anaviy moliyaga emas, balki islomiy moliya tizimiga ham sezilarli ta'sir qilayotganligini ko'rsatadi [4]. Internet orqali ma'lumot olish, muloqot qilish va bank operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi moliyaviy xizmatlardan biri sifatida PayPal xizmatini keltirish mumkin.

Internet-banking orqali mijozlar hisob raqami qoldig'i haqida ma'lumot olish, kommunal (elektr energiyasi, telefon, kredit kartalari va boshqa) to'lovlarni amalga

oshirish, tovar va xizmatlarni sotib olish (vaucherlar yoki chiptalar), boshqa banklarga pul o'tkazmalarini amalga oshirish hamda bank mahsulotlari va xizmatlari haqida axborot olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ko'p funksiyali menyu orqali qulay operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati va internet-banking xizmatlaridan mobil telefon, noutbuk, planshet yoki kompyuter kabi istalgan qurilma orqali foydalanish mumkinligi uning asosiy afzalliklaridan hisoblanadi [24].

Fintex (FinTech) atamasini umumiy holda aniq ta'riflash qiyin, chunki jamoatchilik tomonidan uni qabul qilish darajasi ko'pincha yetarli tushunchaning mavjud emasligi va fintex innovatsiyalari an'anaviy moliya tizimini jadal ravishda qanday o'zgartirayotganligini to'liq anglab yetilmasligi bilan cheklanadi [15]. Mualliflar fikricha, mazkur omillar fintex texnologiyalarining keng omma tomonidan qabul qilinishi va amaliyotga joriy etilishida asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi. Xususan, ushbu omillar foydalanuvchilarning texnologiyalarga bo'lgan ishonch darajasini pasaytirishi, ularning raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishga bo'lgan tayyorgarligini cheklashi hamda fintex yechimlarining ommalashuv sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada, fintex xizmatlarining keng joriy etilishi sekinlashib, moliyaviy innovatsiyalarning to'liq salohiyati ro'yobga chiqmay qolishi ehtimoli ortadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda islomiy banklarda moliyaviy texnologiyalar asosidagi raqamli transformatsiya jarayonlarini o'rganishda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslama va tizimli tahlil usullari qo'llanildi. Internet-bankingni qabul qilishga ta'sir etuvchi omillar mantiqiy-tizimli yondashuv asosida o'rganildi hamda islomiy fintexning vositachilik (mediator) roli ilmiy jihatdan baholandi. Tadqiqot xulosalari xalqaro ilmiy manbalar va ochiq statistik ma'lumotlarga tayangan holda shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Islom banklarida fintex transformatsiyasini tushunish uchun avvalo uning nazariy poydevorini va iste'molchilar tomonidan qabul qilinish psixologiyasini tahlil qilish zarur. Bu shunchaki texnologik yangilik emas, balki ishonch va e'tiqod masalasidir.

Informatika va telekommunikatsiyalarning rivojlanishi moliya sohasida fintex inqilobini keltirib chiqardi. Islomiy fintex – bu moliya va texnologiyaning uyg'unlashgan shakli bo'lib, u shariat qoidalariga muvofiq ishlab chiqiladi: ya'ni u ribo, maysir va g'arar kabi man etiladigan omillarni o'z ichiga olmaydi. Masalan, Subhan va Samikon ta'kidlashicha, Islomiy fintex Shariat qoidalariga asosida tartibga solinib, moliya mahsulotlarining raqamli ko'rinishini soddalashtiradi [22].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fintexning vositachilik roli quyidagi omillar orqali namoyon bo'ladi:

mijozlar raqamli platformalarni an'anaviy bank xizmatlariga qaraganda tezroq, arzonroq va qulayroq deb bilishadi. Xususan, operatsion xarajatlarning kamayishi hisobiga xizmat haqlarining pasayishi va 24/7 rejimida xizmat ko'rsatish imkoniyati fintexning asosiy ustunligi hisoblanadi;

islomiy moliyaviy mahsulotlar (masalan, Murabaha yoki Musharaka) o'z tabiatiga ko'ra ko'plab hujjatlarni va bosqichlarni talab qiladi. Fintex platformalari bu jarayonlarni avtomatlashtirib, foydalanuvchi interfeysini (UI/UX) soddalashtiradi, natijada mijoz murakkab fiqh qoidalarini o'rganmasdan turib, shariatga mos xizmatdan foydalanishi mumkin bo'ladi;

islomiy fintexning qabul qilinishini tushuntirishda eng keng tarqalgan nazariyalar – Texnologiyani qabul qilish modeli (TAM) va Texnologiyani qabul qilish va ishlatishning yagona nazariyasi (UTAUT) qo'llaniladi. Biroq, islomiy kontekstda ushbu modellarga "Diniy ishonch" va "Islomiy bank bilimlari" kabi yangi o'zgaruvchilar qo'shilmoqda [21].

Tadqiqotlar natijalari quyidagi qonuniyatlarni tasdiqlaydi:

1. Musulmon jamiyatlarida, xususan umumiy madaniyatga ega bo'lgan davlatlarda (O'zbekiston, Indoneziya), oila a'zolari, diniy ulamolar va jamiyatning fikri texnologiyani qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar fintex ilovasi nufuzli Shariat kengashi tomonidan tasdiqlangan bo'lsa, uning qabul qilinish ehtimoli keskin ortadi;

2. Bu omil islomiy fintexda ikki barobar ahamiyatga ega. Birinchidan, moliyaviy yo'qotish xatari (kiberxavfsizlik), ikkinchidan, Shariatga nomuvofiqlik xatari (ma'naviy xatar). Fintex platformalari blokcheyn orqali shaffoflikni ta'minlash orqali har ikkala xatarni minimallashtirishga harakat qilmoqda;

3. Islomiy ish etikasi qanchalik kuchli bo'lsa, foydalanuvchilarning fintex platformalariga bo'lgan ishonchi va ularni qabul qilish istagi shunchalik yuqori bo'ladi.

Islomiy fintex bozori endilikda global miqyosda diversifikatsiya qilingan va jadal rivojlanayotgan ekotizimga aylandi. Raqamlar va faktlar sohaning ko'lamini yaqqol ko'rsatib turibdi.

2023-2024-yillarda global islomiy fintex bozorining hajmi (tranzaksiya hajmi bo'yicha) taxminan 161 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Tahlilchilarning prognozlariga ko'ra, bu ko'rsatkich yillik 13,6 foizdan 15,6 foizgacha bo'lgan barqaror o'sish sur'ati (CAGR) bilan 2028-yilga borib 306 milliard dollarga, 2032-yilga kelib esa 361,9 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Bu o'sish sur'atlari an'anaviy fintex sektorinikidan yuqori bo'lib, bu musulmon aholisining tez o'sishi va raqamli xizmatlarga bo'lgan "ochlik" bilan izohlanadi [27].

244 ta yetakchi islomiy fintex kompaniyalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar faqat musulmon davlatlari bilan cheklanib qolmayapti. Aksincha, G'arb davlatlari tartibga solish (regulyatsiya) sohasidagi ustunliklari evaziga yetakchilik qilmoqda (1-jadval).

1-jadval

Islomiy fintex kompaniyalarining global taqsimoti va xususiyatlari*

Mintaqa	Kompaniyalar soni	Ulushi	Asosiy xablar	Rivojlanish xususiyatlari
Yaqin sharq	79	32.4%	BAA, Saudiya Arabistoni	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yuqori, yirik banklar bilan integratsiya kuchli. Saudiya Arabistoni "Sandbox" rejimlari bo'yicha yetakchi.
Janubi-sharqiy Osiyo	71	29.1%	Malayziya, Indoneziya	Islomiy ijtimoiy moliya (Zakot, Vaqf) va P2P kreditlash bo'yicha global yetakchi. Aholining katta qismi bank xizmatlari bilan qamrab olinmagan.
G'arbiy yevropa	58	23.8%	Buyuk Britaniya (UK)	Buyuk Britaniya yagona davlat sifatida eng ko'p fintex kompaniyasiga (18%) mezbonlik qiladi. Sababi: ilg'or qonunchilik va venchur kapitali.
Amerika	20	8.2%	AQSh, Kanada	Robo-maslahatchilar (Wahed Invest) va investitsiya platformalari rivojlangan.
Afrika	11	4.5%	Nigeriya	Moliyaviy inklyuzivlikka qaratilgan to'lov tizimlari.
MDH va boshqalar	5+	2%	O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya	Eng tez o'sayotgan yangi bozor. Qonunchilik islohotlari (2024-2025) natijasida portlash effekti kuzatilmoqda.

*Mavzuga doir adabiyotlar va internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Islomiy fintex kompaniyalariga kiritilgan jami investitsiyalar hajmi 2,44 milliard dollardan oshgan bo'lib, buning qariyb yarmi (1,2 milliard dollar) Neobanklar hissasiga to'g'ri keladi. Bu shuni anglatadiki, investorlar kelajak bankchiligi jismoniy ofislarsiz, to'liq raqamli shaklda bo'lishiga ishonishadi [27].

Sektorlar kesimida quyidagi yo'nalishlar yetakchilik qilmoqda:

1. Bank ishtirokisiz to'g'ridan-to'g'ri investitsiya va qarz berish. Amarnya (Indoneziya) va Beehive (BAA) kabi platformalar kichik biznesni moliyalashtirishdagi bo'shliqni to'ldirmoqda;
2. WorldRemit kabi global o'yinchilar mehnat migrantlari uchun Shariatga mos, arzon pul o'tkazmalarini taqdim etmoqda;
3. Wahed Invest (AQSh) eng yorqin misol. U minimal 100 dollar sarmoya bilan har bir musulmonga global aksiyalar va Sukuk bozoriga kirish imkonini berdi;
4. 20 ta loyiha, shu jumladan oltin bilan ta'minlangan OneGram va Caizcoin. Ular

kripto-aktivlarning spekulyativ tabiatini yo'qotib, ularni real aktivga bog'lashga intilmoqda.

O'zbekiston uzoq yillar davomida islom moliyasi xaritasida passiv kuzatuvchi bo'lib kelgan bo'lsa-da, 2024-2025-yillardagi fundamental islohotlar mamlakatni mintaqaviy liderga aylantirish yo'lida dadil qadamlar tashlashiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston hukumati islom moliyasini iqtisodiy o'sishning yangi drayveri sifatida rasman tan oldi. 2025-yil sentabr oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi O'zbekistonda islomiy banklar faoliyatini joriy etish to'g'risidagi qonun loyihasini birinchi o'qishda ma'qullagandi.

Ushbu qonun va u bilan bog'liq o'zgarishlar quyidagi tizimli muammolarni hal qildi:

avvallari islomiy moliyalashtirish (masalan, Murabaha) savdo bitimi sifatida qaralib, ikki karra soliqqa tortish (QQS) xavfini tug'dirardi. Yangi qonun Soliq kodeksiga

o‘zgartirishlar kiritib, islomiy bank operatsiyalarini an’anaviy kreditlash bilan tenglashtirdi va ortiqcha soliq yukini olib tashladi;

“Islomiy bank”, “Islomiy oyna” va “Mikromoliya tashkilotlari” tushunchalari qonunchilikka kiritildi. Markaziy Bank tomonidan ushbu faoliyat turlarini litsenziyalash va tartibga solish mexanizmlari ishlab chiqildi;

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida 2030-yilgacha mamlakatda kamida 3 ta tijorat bankida islomiy xizmatlarni to‘liq joriy etish va 10 milliard dollar hajmida islomiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadi qo‘yilgan. Dastlabki bosqichda, 2027-yilgacha bitta bankda pilot loyiha ishga tushirilishi kutilmoqda.

Qonunchilik bazasi endigina shakllanayotgan bo‘lsa-da, mahalliy fintex startaplari allaqachon bozorga kirib, sezilarli yutuqlarga erishdi. Masalan:

IMAN o‘zini shunchaki moliya kompaniyasi emas, balki musulmonlar uchun “Superapp” sifatida pozitsiyalamoqda. Uning P2P modeli investorlar va iste’molchilarni bog‘laydi. 2024-2025-yillar davomida

kompaniya faol rivojlanib, 300,000 dan ortiq ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchiga va 10 million dollarlik yillik takrorlanuvchi daromadga (ARR) erishdi;

2025-yil bahorida IMANUM ilovasi ishga tushirildi. Bu ilova moliyaviy xizmatlarni axloqiy turmush tarzi (lifestyle) xizmatlari bilan birlashtiradi. Shuningdek, IMAN o‘zining texnologik infratuzilmasini boshqa banklarga taklif qilish (Banking-as-a-Service, BaaS) orqali B2B bozoriga ham kirdi [29];

Tojikistonda muvaffaqiyat qozongach, Alif O‘zbekistonda ham yetakchi BNPL (muddatli to‘lov) provayderiga aylandi;

2024-2025-yillarda kompaniya 40 million dollar sarmoya jalb qildi va umumiy Shariatga mos investitsiyalari hajmini 200 million dollarga yetkazdi. Alifning mobil ilovasi butun mamlakat bo‘ylab keng qo‘llanilmoqda va ular O‘zbekistonda birinchi raqamli islom banki bo‘lish uchun eng asosiy da’vogarlardan biridir [28].

Islom banklarining transformatsiyasi bir nechta fundamental texnologiyalarga tayanadi. Bu texnologiyalar an’anaviy bankchilikdagi muammolarni qanday hal qilishini quyidagi 2-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval

Texnologik yechimlar va shariat talablari*

<i>Texnologiya</i>	<i>An’anaviy muammo</i>	<i>Fintex yechimi</i>	<i>Islomiy tamoyil</i>
Blokcheyn va smart kontraktlar	<i>Shartnomalarning murakkabligi va shaffof emasligi (G‘arar xavfi).</i>	<i>Bitim shartlari kodga yoziladi, o‘zgartirib bo‘lmaydi va barcha ishtirokchilar uchun ochiq bo‘ladi.</i>	<i>Shaffoflik va G‘ararni yo‘qotish</i>
Sun‘iy intellekt (AI) va Big Data	<i>Kredit tarixini baholashda noaniqlik va subyektivlik.</i>	<i>AI mijozning raqamli izi asosida xatarlarni aniq baholaydi va shaxsiylashtirilgan takliflar beradi.</i>	<i>Adolat va xatarni to‘g‘ri baholash</i>
Robo-Advisory (Avtomatik maslahatchi)	<i>Halol aksiyalarni tanlash (Screening) jarayonining qimmatligi va sekinligi.</i>	<i>Algoritmlar minglab kompaniyalarni soniyalar ichida tahlil qilib (qarz yuki, daromad manbai), “Halol” portfel tuzadi.</i>	<i>Haromdan saqlanish</i>
P2P platformalari	<i>Bank marjasining yuqoriligi va mablag‘lar oqimining noaniqligi.</i>	<i>Investor va oluvchini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘laydi, foyda va zararni bo‘lishish (Mudaraba) tamoyilini avtomatlashtiradi.</i>	<i>Foyda va xatarni bo‘lishish</i>

*Mavzuga doir adabiyotlar va internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Blokcheyn texnologiyasi islom moliyasi uchun tabiiy ittifoqchi hisoblanadi. Uning

markazlashmagan tabiati bitimlardagi noaniqlikni kamaytirish orqali G‘ararni yo‘q

qilishga xizmat qiladi. Smart Sukuk (aqli obligatsiyalar) loyihalari emissiya xarajatlarini kamaytirib, kichik investorlarga ham ushbu bozorga kirish imkonini bermoqda. Oltin bilan ta'minlangan kriptovalyutalar (masalan, OneGram) esa Islom ulamolari tomonidan qimmatbaho qog'ozlar yoki tovar sifatida tan olinmoqda.

O'zbekistondagi IMAN va xalqaro miqyosdagi boshqa ilovalar "Superapp" modeliga o'tmoqda. Bu modelda bitta ilova ichida investitsiya, to'lovlar, elektron tijorat va hatto zakot berish imkoniyatlari birlashtiriladi. Bu mijozga qulaylik yaratish bilan birga, kompaniyaga mijoz haqida ko'proq ma'lumot to'plash va xizmatlarni shaxsiylashtirish imkonini beradi.

Islomiy fintexning jadal rivojlanishiga qaramay, soha jiddiy to'siqlarga duch kelmoqda. Bu to'siqlarni yengib o'tish sohaning kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Eng katta muammo – bu texnologik innovatsiyalarning Shariatga mosligini ta'minlash. Har bir yangi mahsulot (masalan, NFT, DAO yoki algoritmik savdo) Shariat kengashi tomonidan tasdiqlanishi kerak. Bu jarayon ko'p vaqt va mablag' talab qiladi. Shuningdek, turli mazhablar va mintaqalar o'rtasida fatvolarning farqlanishi global standartlashtirishga to'sqinlik qiladi.

O'zbekistonda Islomiy bank xizmatlarini joriy qilish rejalashtirilayotganligi sharoitida, uning amaliy ijrosi bo'yicha tizimi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Xususan, raqamli platformalarga o'tish kiberxavflarni oshiradi. Ma'lumotlarning sizib chiqishi nafaqat moliyaviy zarar, balki islomiy moliya institutlariga bo'lgan ishonchga (Reputational Risk) putur yetkazishi mumkin. Chunki islom

banklari uchun ishonch – eng qimmatli aktivdir.

Xulosa va takliflar.

Islomiy fintex – bu shunchaki musulmonlar uchun bank xizmati emas. Bu adolatli, shaffof va axloqiy moliya tizimiga bo'lgan global ehtiyojga javobdir. Texnologiya an'anaviy to'siqlarni (geografik, iqtisodiy) olib tashlab, moliyaviy xizmatlarni barchaga yetkazib berish imkonini yaratmoqda. O'zbekiston va butun islom olami uchun bu nafaqat iqtisodiy o'sish, balki o'z qadriyatlarini zamonaviy raqamli dunyoga uyg'unlashtirish imkoniyatidir.

Banklar, regulyatorlar va startaplar o'rtasidagi hamkorlik ushbu imkoniyatdan to'liq foydalanishning kalitidir. Kelgusi o'n yillikda biz an'anaviy banklarning "darchalar"dan to'liq raqamli platformalarga o'tishini va islomiy fintexning global moliya bozoridagi ulushining keskin ortishini guvohi bo'lamiz.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, islom banklarida fintex transformatsiyasi ortga qaytmas jarayondir. 2030-yilga borib, quyidagi o'zgarishlar kutilmoqda:

sof an'anaviy islom banklari yo'qolib boradi. Ular o'zlari to'liq raqamli banklarga aylanadi, yoki fintex kompaniyalarini sotib olib, ekotimizga integratsiya bo'ladi;

qonunchilik islohotlari va demografik salohiyat (35 milliondan ortiq aholi, yosh avlod) evaziga O'zbekiston MDH va Markaziy osiyo uchun islomiy fintex xabiga aylanadi. O'zbek startaplari (IMAN, Alif) qo'shni bozorlarga va hatto yaqin sharqqa (Saudiya Arabistoni, BAA) eksport qilinadi;

fintex orqali "Zakat" va "Vaqf" institutlari qayta tiklanadi va shaffoflik ta'minlanadi, bu esa kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-noyabrdagi "O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-359-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-noyabrdagi "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 617-sonli qarori.

3. Abdillah, L. A. (2020). *FinTech e-commerce payment application user experience analysis during COVID-19 pandemic*. *Scientific Journal of Informatics*.
4. Abdul Rafay, A., Sadiq, R., Ajmal, M., & others. (2019). *FinTech and its impact on banking behavior: Evidence from Islamic finance*. *Journal of Islamic Finance*.
5. Alalwan, A. A., Dwivedi, Y. K., Rana, N. P., & Williams, M. D. (2018). *Consumer adoption of mobile banking in Islamic banks*. *Journal of Retailing and Consumer Services*.
6. Bauer, H. H., Hammerschmidt, M., & Falk, T. (2006). *Measuring the quality of e-banking portals*. *International Journal of Bank Marketing*.
7. Fishbein, M., & Ajzen, I. (2010). *Predicting and changing behavior: The reasoned action approach*. New York: Psychology Press.
8. Firmansyah, I., & Anwar, M. (2019). *Islamic financial technology (FinTech): Its challenges and prospects*. *Journal of Islamic Monetary Economics and Finance*.
9. Gokmenoglu, K. K. (2020). *Understanding Islamic banking: Principles and practices*. *Islamic Economic Studies*.
10. Gupta, S., Yadav, A., & Varadarajan, R. (2008). *The impact of internet banking on customer satisfaction*. *Journal of Financial Services Marketing*.
11. Hasan, R., Paltrinieri, A., Dreassi, A., Khan, A., & Bahoo, S. (2020). *Islamic FinTech: Overview, challenges and opportunities*. *Journal of Islamic Accounting and Business Research*.
12. Johar, R. S., & Suhartanto, D. (2019). *The adoption of online banking in Islamic banks*. *Journal of Islamic Marketing*.
13. Kaur, P., Dhir, A., Singh, N., Sahu, G., & Almotairi, M. (2021). *Adoption of digital banking services*. *International Journal of Information Management*.
14. Khan Md Abdus Subhan, Siti Aida Samikon. *Factors Influencing Internet Banking Adoption of Islamic Banking Industry: Mediating Impact of Islamic FinTech // The Seybold Report*. – 2022. – Vol. 17. – Issue 6. – B. 1459–1468.
15. Leong, K., & Sung, A. (2018). *FinTech (financial technology): What is it and how to use technologies to create business value in fintech way?* *International Journal of Innovation, Management and Technology*.
16. Lichtenstein, S., & Williamson, K. (2006). *Understanding consumer adoption of internet banking*. *Journal of Financial Services Marketing*.
17. Mazuri, A. G., Daud, N. M., & Mohamed, S. (2017). *Internet banking adoption: An empirical analysis*. *Asian Journal of Business Research*.
18. Oseni, U. A., & Ali, S. N. (2019). *FinTech in Islamic finance: Theory and practice*. Routledge.
19. Rahi, S. (2019). *Integration of UTAUT model in internet banking adoption*. *Journal of Islamic Marketing*.
20. Riza, A. F. (2019). *Factors influencing digital Islamic banking adoption*. *Journal of Islamic Banking and Finance*.
21. Salmaan, S. (2017). *Islamic FinTech: Shariah perspective and future opportunities*. *Islamic Finance Review*.
22. Subhan, M. A., & Samikon, S. A. (2022). *Factors influencing internet banking adoption of Islamic banking industry: Mediating impact of Islamic FinTech*. *Seybold Report*, 17(6).
23. Umar, M., & Nazim, A. (2019). *Revisiting the concept of Islamic FinTech*. *Journal of Islamic Finance*.
24. Yusuf, M., Wahab, S. A., & others. (2018). *Internet banking adoption and customer convenience*. *International Journal of Bank Marketing*.
25. Нагимова А.З. *Исламский финтех: цифровизация исламских финансов // Мировая экономика и международные отношения*. – 2022. – Т. 66. – № 5. – стр. 50–58.
26. Straits Research *xalqaro tadqiqot kompaniyasining "Islamic Finance Market Size, Trends & Growth Chart by 2033" hisoboti*.
27. *The Global Islamic Fintech Report 2023/24*.
28. alif.uz - Alif kompaniyasining rasmiy sayti.
29. iman.uz - IMAN kompaniyasining rasmiy sayti.